ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

# НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

# НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

2021 йил 11-сон

***Бош муҳаррир:*** *Наманган давлат университети ректори С.Т.Турғунов*
***Масъул муҳаррир:*** *Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов*
***Масъул муҳаррир ўринбосари:*** *Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Р.Жалалов*

**Т А Ҳ Р И Р Ҳ А Й Ъ А Т И**

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д М.Рахматуллаев.
**Кимё фанлари:** акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.
**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.н.
**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.
**Қишлоқ хўжалиги фанлари:** – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.
**Тарих фанлари:** – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.
**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.
**Фалсафа фанлари:** –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.
**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев,
фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.
**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.
**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.
**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.
**Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова
**Техник муҳаррир:** ***Н.Юсупов***

**Тахририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.**
***Тел:*** (0369)227-01-44, 227-06-12 ***Факс:*** (0369)227-07-61 ***e- mail:*** ilmiy@inbox.uz

*Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.*
*"НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ" журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. "НамДУ Илмий Ахборотномаси" электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.11.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб,*
*илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 11**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.*

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021**

6. Lex.uz.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SOG'LOM QILIB TARBIYLASHDA SAYRLARDA O'TKAZILADIGAN HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI

Ismoilov Turobjon, dotsent NamDU
Arzibayev Qodirjon dotsent v.b. UzMU
Ismoilov G'anisher o'qituvchi NamDU
Hudoyberdiyeva Sevara, magistr NamDU

***Annotatsiya***: *ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar bilan sayrlarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, harakatli o'yinlar.*

## ЗНАЧЕНИЕ И ВАЖНОСТЬ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ЗДОРОВОМ И ГАРМОНИЧНОМ ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ ВО ВРЕМЯ ПРОГУЛОК.

Исмоилов Туробжон доцент Нам ГУ
Арзибаев Қодиржон и.о. доцента НУУ
Исмоилов Ғанишер учитель Нам ГУ
Худойбердиева Севара магистр Нам ГУ

***Аннотация***: *данной в статье освещены проведение подвижные игры в прогулках с ребятами дошкольного учреждения.*

***Ключевые слова***: *физическое воспитание, оздоровление, физическое развитие, физическая подготовка, подвижные игры.*

## THE IMPORTANCE OF OUTDOOR PLAYS IN THE HEALTHY UPBRINGING OF YOUNG GENERATION

Ismoilov Turobjon PhD of NamSU
Arzibayev Qodirjon worker task of assistant professor of UzMU
Ismoilov G'anisher teacher of NamSU
Hudoyberdiyeva Servara master of NamSU

***Annotation*** *: this article highlights the action games that take place on field trips with children in preschsools.*

***Key words:*** *physical treatment, recovery, physical developing, physical preparation, physical training, mobile activities.*

Mamlatimiz rahbariyati oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu o'sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalashdan iboratdir. Shu boisdan ham mustaqillikni dastlabki kunlaridan boshlab soglom avlod tarbiyasiga alohida etibor qaratildi[2;3].

''Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida''gi qonun, ''Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida''gi qarorni qabul qilinishi va ''Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha Harakatlar strategiyasi togrisida''gi farmoni katta ahamiyatga ega boldi[1;4;5].

Yrtimiz kelajagi bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodan boshlanadi. Yoshlarimizni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda, jismonan barkamol va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, mahalla va oilaning o'rni muhimdir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni salomatligini mustahkamlashda, jismoniy tayyorgarligini oshirishda ular bilan sayrlarda otkaziladigan harakatli o'yinlarni ahamiayti kattadir[6;7].

Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar bilan maktabgacha talim tashkilotlarida jismoniy tarbiya vositasi sifatida sayrlardagi harakatli o'yinlar "Jismoniy tarbiya" dasturi asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya dasturi asosida sayrlardagi harakatli o'yinlar tashkil etiladi. Dastur mazmuni bolalar bilan o'tkaziladigan sayrlardagi turli harakatli o'yinlardan iborat bo'ladi. Ba'zi tajribali tarbiyachilar va jismoniy tarbiya mutaxassislari sayrlarda turli harakatli o'yinlardan ham unumli foydalanishadi.

Sayrdagi harakatli o`yinlar va harakatlarning asosiy turlariga oid mashqlarni o`tkazish bolalarning harakat faolligini oshiradi, malakalarini yanada mustahkamlanishiga yordam beradi, salomatligini yaxshilashga ko`maklashadi.

Dastlabki paytlarda harakatli o`yinlar va mashqlarga bir qism bolalar jalb qilinadi, keyinchalik ular hamma bolalar ishtirok etishiga harakat qilish kerak. Sayrdagi harakatli o`yin va mashqlarni o`tkazishga tayyorlanish uncha qiyin emas. Sayrga chiqqanda bolalar zarur asbob-anjomlar: bir necha koptok, kubik va zarur jihozlarni olib chiqadilar. Lozim bo`lsa, bolalar tarbiyachi bilan birgalikda maydonchaga gimnastika o`rindiqlarini o`rnatadilar. Bular o`yinlar va o`yin estafetalari o`tkazish uchun kerak bo`ladi.

Tarbiyachi qoidalarning aniq bajarilishini: vaqtidan ilgari yugurib chiqib olmasligini, keglilarni yiqitgan bo`lsa, orqaga qaytib uni o`z joyiga qo`yishni ham kuzatib turadi. Kasal va mashg`ulotdan ozod qilingan bolalarni tarbiyachi yordamchi va hakamlar sifatida jalb qiladi.

Shunday qilib bolalar sayrlarda harakatlarni o`rganadilar hamda o`yin va mashqlar vaqtida ularni mustahkamlaydilar. Bir muncha vaqtdan so`ng bu harakatlar estafeta yoki o`yinlar vaqtida bajariladi. Asosiy harakat mashqlari 3-4 marta takrorlangandan keyin tarbiyachi harakatli o`yinlar yashkil etadi.

O`yinlar va asosiy harakatlar vaqtida bolalar sayr uchun kiyadigan odatdagi kiyimini kiyadilar. Shuning uchun tarbiyachi ularning ortiqcha isib ketmasligini kuzatib borishi kerak. O`yindagi bolalar juda han faol bo`lsalar, takrorlashlar orasidagi tanaffuslarni bir oz uzaytirish, bu vaqtda bolalarning hatti-harakatini va ular yo`l qoygan hatolarni muhokama qilish mumkin. Nam va hamolli ob-havo sharoitida o`yin uchun katta hajmdagi maydoncha tanlash takrorlash orasidagi vaqtni qisqartirish bilan bolalarning faolligini oshirish kerak.

Sayrlar vaqtidagi harakatli o'yinlar quyidagilardan iborat:

- to'p bilan bajariladigan o'yinlar: to'pni olib qo'yish, ilib olish, uloqtirish, doiraga tushirish, bir-biriga uzatish, bir-birini urish;
- estafetali o'yinlar: biron buyimni yugurib qo'yib kelish va qaytib olib kelish, arqonchadan sakrab yugurish;
- sayr- sayohatlar, toza havoda dam olish, o'tirib o'ynaydigan turli hildagi o'yinlar;

O'yinlarni tashkil qilish va qiziqarli qilib o'tkazish uchun joylarni tanlash, ularga bo'lgan talablarni bilish lozim. Sog'liqqa zarar keltiruvchi va shikastlanishga sabab bo'luvchi jihatlardan bartaraf qilish tarbiyachi-tashkilotchining burchidir.

Argamchi, to'plar, arqon, chambarak va boshqa asbob-uskunalarni guruh bo'lib o'ynashda barcha bolalarga yetarli bo'lishi yoki to'g'ri taqsimlanishi lozim.

Takidlash lozimki, sayrlardagi o'yinlar jarayoni yoki so'ngida bolalarning barchasida quvnoqlik, yani o'ynashga ishtiyoq bo'lishi lozim. Birontasi ham o'yindan yoki bir-biridan norozi bo'lmasligi kerak.

Jismoniy tarbiya mutaxassisi va tarbiyachi eng avvalo sayrlarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlarning turlari va mazmunlarini a'lo darajada bilish, tashkil qilish hamda o'tkazish jarayonlarida doimo birgalikda ijro etish bolalarning qiziqishini oshirishda eng muhum omil bo'lib hizmat qiladi.

Harakatli o'yinlar jarayonida, harakatlarni noto'g'ri bajargan bolalarni kamsitish koyish yaramaydi, aksincha, rag'batlantiruvchi tarbiyaviy usullardan foydalanish bolallar ruhiyatiga ijobiy tasir etadi.

Shunday hulosa qilish mumkunki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan sayrlarda harakatli o'yinlarni o'ynash va jismoniy mashqlarni bajartirisnda avvalo ularning pedagogik hususiyatlarini hisobga olish, oy'inni o'tkazish joylarini va kerakli bo'lgan jihozlarni oldindan tayyorlab qoyish uiarda o'yinga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni (2015. 04.09). Xalq so'zi. –Toshkent, 2015. 5 sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis qilish to'g'risida»gi Farmoni (1993. 4 mart). Turkiston. –Toshkent, 1993. 6 mart.
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni (2002 y. 24 oktyabr). Sport. –Toshkent, 2002. № 80. 30 oktabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent: "Adolat", 2017. -112 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (2017. 3 iyun). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami № 23. -Toshkent, 2017. 12 iyun.
6. Maxkamjonov K. Nasriddinov F. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillashtirish. -Toshkent.1995.-74 b.
7. Tulenova X. B. Maktabgacha tarbiya muassasalarida 5-7 yoshli bolalar jismoniy tarbiyasini takomillashtirish. Dis. … ped. fan. nom. –Toshkent.2000. -160 b.

67 **Истак феномени ва унинг турли фан соҳаларида ўрганилиши**
Гулибануму К. ........ 369
68 **Форс ва ўзбек тилларидаги дублетлар ва уларни унификациялаш масаласи**
Мирзахмедова Ҳ.В. ........ 376
69 **Оламнинг ўзбек лисоний тасвирида “Маънавият” категорияси ва унинг Абдулла Қодирий асарларида қўлланиш хусусиятлари**
Холмуродова М.А. ........ 386
70 **Фитратнинг адабий-назарий қарашлари**
Хамракулова Х,К. ........ 392
71 **Ўзбек тили синтаксиси тадқиқ усуллари ҳақида**
Юлдошева Н.Э. ........ 397

## ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ
## 13.00.00 ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
## PEDAGOGICAL SCIENCES

72 **The main requirements for the content of teaching english in transport university**
Nazarov R.I. ........ 403
73 **Педагогик қадриятлар ва уларнинг таснифи**
Назаров А.Т. ........ 407
74 **O'zbekiston ta'lim tizimining COVID-19 pandemiyasidan keyingi holati**
Xodjaqulova F.R. ........ 410
75 **Some ways to develop writing skills of blind students**
Asrorov I.F. ........ 416
76 **Bakalavr talabalarining raqamli madaniyati asosida raqobatbardoshlik sifatining afzalliklari.**
Maxmudov A.Z. ........ 420
77 **Kimyo ta'limi jarayonida talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari**
Botirova S.R. ........ 426
78 **Юқори интенсивликдаги ҳафталик амалиётда ёш гимнастикачиларнинг мусобақаолди тайёргарлик босқичи**
Умаров Д.Х. ........ 433
79 **Geografiya ta'limida interfaol o'yinlardan foydalanishning psixologik-pedagogik asoslari**
Akaboyev I.Z., Begmatova S.Z. ........ 442
80 **Sport to'garaklari sinfdan tashqari ishlarning asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi**
Jiyanov O.M. ........ 449
81 **Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom qilib tarbiylashda sayrlarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlarning ahamiyati**
Ismoilov T., Arzibayev Q., Ismoilov G'., Hudoyberdiyeva S. ........ 455